

19-dars. 3 ga va 9 ga bo'linish alomatlari



1. Berilgan sonlarning har biri uchun **karrali** sonlarni ayting.

4

5

6

10

18

3

2

15

9



2. Avval barcha sonlari **2 ga**, so'ng **10 ga**, keyin esa **5 ga** bo'linadigan ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $2\,400 : 100 \cdot 30 + 450 \cdot 60$

b) $5\,675 + 21\,000 : 5 \cdot 15 - 4\,210 : 5$

d) $428 : 4 \cdot 46 + 4\,856$

3 ga bo'linish alomati

Agar sonning raqamlari yig'indisi 3 ga bo'lsa, sonning o'zi ham 3 ga bo'linadi.

$672 : 3 = 224$ $6 + 7 + 2 = 15$ (3 ga bo'linadi)

9 ga bo'linish alomati

Agar sonning raqamlari yig'indisi 9 ga bo'lsa, sonning o'zi ham 9 ga bo'linadi.

$981 : 9 = 109$ $9 + 8 + 1 = 18$ (9 ga bo'linadi)



3. Qaysi qoplardagi yukning massasi **3 ga** bo'linadi? **9 ga**-chi?



108 kg



45 kg



92 kg



60 kg



36 kg



54 kg

Har bir sonning **raqamlari yig'indisini** toping. Nimani sezdingiz?



4. Tenglamalarni yeching va qaysi tenglamaning ildizi **3 ga** va **9 ga** **karrali** ekanligini aniqlang.

a) $966 : (133 + x) = 7$

d) $911 - (601 - c) = 317$

b) $y \cdot 9 - (423 + 347) = 121$

e) $563 - x \cdot 10 = 533$



5. Ifodalarning qiymatini hisoblang va natijalarni **metr**, **detsimetr** hamda **santimetrlarda** ifodalang.

a) $(9 \text{ dm} + 3 \text{ m } 12 \text{ cm}) : 3 + 35 \text{ cm} \cdot 5$

b) $(308 \text{ cm} + 2 \text{ m } 5 \text{ dm } 9 \text{ cm}) : 9 + 3 \text{ m } 54 \text{ cm} \cdot 5$



6. Olimlar birinchi podada 28 ta, ikkinchi podada undan 13 ta ko'p, uchinchi podada esa birinchi va ikkinchi podadagi sayg'oqlar jami sonidan 3 marta kam sayg'oqni sanadilar. Olimlar jami nechta sayg'oqni sanadilar?



7. Tuyalarda sayohat qilish uchun bir nechta ishtirokchi ro'yxatdan o'tdi. Karvonda har bir ishtirokchiga bittadan tuya ajratilgan edi. Ishtirokchilarning uchdan bir qismi sayohatdan voz kechdi. Natijada oyoqlarning umumiy soni 24 taga kamaydi. Dastlab karvonda nechta tuya bo'lgan? Keyin nechta tuya qolgan?



8. Faqat barcha sonlari **3 ga bo'linadigan** ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $673 \cdot 724 + 141 \cdot (8\,562 - 1\,843)$

b) $80\,100 : 9 + (64\,287 - 21\,876) \cdot 6$

d) $24 \cdot (39\,834 - 15\,480 : (27 + 33)) \cdot 111$

e) $8\,886 + (143 + 219) \cdot 6 - 12\,690 : 54$

9. Biologlar cho'lda 24 ta fototuzoq o'rnatishdi. Ulardan 3 tasining har biri 1 480 tadan, qolganlarining esa har biri 2 064 tadan suratga oldi. Jami nechta fotosurat olingan?

